

O'zbek modern she'riyatida peyzajning o'ziga xosligi

Sohibova Zarnigor Nusratilloevna

zarnigorsohibova1988@gmail.com

F.f.f.d. (PhD), dotsent, doktorant,

Buxoro davlat universiteti

Annotatsiya *"Peyzaj" atamasi adabiyotshunoslikda ko'p qatlamli semantik mazmunga ega bo'lib, uning shakllanishi tasviriy san'atdagi tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Peyzaj lirikasi poetik tafakkurning o'ziga xos ko'rinishi bo'lib, unda shoir tabiat manzaralari orqali o'z hissiyotlari, dunyoqarashi va estetik idealini ifoda etadi. Shu sababli bu turdagi lirika adabiyotshunoslikda nafaqat mazmun jihatidan, balki shakliy va badiiy-estetik vazifalari nuqtayi nazaridan ham chuqur tahlil etilishi lozim bo'lgan muhim nazariy muammo sifatida maydonga chiqadi. Ushbu maqolada modernizm adabiy yo'nalishiga xos xususiyatlar, uning o'zbek she'riyatidagi in'ikosi va peyzaj hodisasiga munosabati tadqiq qilinadi. Tadqiqotda an'anaviy tasvir usullaridan voz kechish, borliqni subyektiv idrok etish va "ruhiy landshaft" tushunchasi haqida fikr yuritiladi, mashhur faylasuflar va adabiyotshunos olimlarning nazariy qarashlariga munosabat bildiriladi. Unda peyzajning modern she'riyatdagi ramziylik, fragmentarlik (parchalanish), ekzistensial tashvish va absurdlik kabi xususiyatlari Abduvali Qutbiddin she'riyatidagi tabiat manzaralari misolida tahlil qilingan. Muallif tabiat detallari lirik qahramonning ichki kechinmalarini ifodalovchi ko'zgu ekanligini ilmiy asoslab beradi. Shuningdek, olingan natijalar modern she'riyatda tabiat (manzara, peyzaj) obyektiv borliq aksidan ko'ra, ko'proq inson ongining ziddiyatli holatlarini aks ettiruvchi poetik hodisa ekanligini isbotlaydi.*

Kalit so'zlar *Modernizm, peyzaj lirikasi, ruhiy landshaft, Abduvali Qutbiddin, ekzistensializm, ramziylik, subyektivizm, fragmentarlik*

Особенности пейзажа в узбекской модерн-поэзии

Сохибова Зарнигор Нусратиллоевна

zarnigorsohibova1988@gmail.com

Доктор философии по филологическим

наукам (PhD), доцент, докторант,

Бухарский государственный университет

Аннотация *Термин «пейзаж» в литературоведении обладает многослойным семантическим содержанием, и его формирование неразрывно связано с историческими процессами в изобразительном искусстве. Пейзажная лирика является специфическим проявлением поэтического мышления, в котором поэт через картины природы выражает свои чувства, мировоззрение и эстетический идеал. Поэтому данный вид лирики выступает в литературоведении как важная теоретическая проблема, требующая глубокого анализа не только с точки зрения содержания, но и с позиции ее формальных и художественно-эстетических функций. В данной статье исследуются характерные черты модернизма как литературного направления, его отражение в узбекской поэзии и отношение к феномену пейзажа. В исследовании рассматриваются вопросы отказа от*

традиционных методов изображения, субъективного восприятия бытия и концепция «духовного ландшафта», анализируются теоретические взгляды известных философов и литературоведов. На примере поэзии Абдували Кутбиддина анализируются такие особенности пейзажа в модерн-поэзии, как символизм, фрагментарность (распад), экзистенциальная тревога и абсурдность. Автор научно обосновывает, что детали природы являются зеркалом, отражающим внутренние переживания лирического героя. Полученные результаты доказывают, что в современной поэзии природа (сцена, пейзаж) является не столько отражением объективной реальности, сколько поэтическим феноменом, отражающим противоречивые состояния человеческого сознания.

Ключевые слова Модернизм, пейзажная лирика, духовный ландшафт, Абдували Кутбиддин, экзистенциализм, символизм, субъективизм, фрагментарность

Specific Features of Landscape in Uzbek Modern Poetry

Sohibova Zarnigor Nusratilloeyvna

zarnigorsohibova1988@gmail.com

Doctor of Philosophy in Philological Sciences
(PhD), Associate Professor, Doctoral Student,
Bukhara State University

Annotation *The term "landscape" in literary criticism possesses a multi-layered semantic content, and its formation is inextricably linked to historical processes in the visual arts. Landscape lyrics are a specific manifestation of poetic thinking, in which the poet expresses their feelings, worldview, and aesthetic ideal through nature imagery. Consequently, this type of lyricism emerges as a significant theoretical problem in literary studies that requires profound analysis not only in terms of content but also regarding its formal and artistic-aesthetic functions. This article explores the distinctive characteristics of modernism as a literary movement, its reflection in Uzbek poetry, and its approach to the phenomenon of landscape. The research discusses the departure from traditional representational methods, the subjective perception of existence, and the concept of the "spiritual landscape," while engaging with the theoretical perspectives of prominent philosophers and literary scholars. Key features of landscape in modern poetry – such as symbolism, fragmentariness (disintegration), existential anxiety, and absurdity – are analyzed through the nature imagery in Abduvali Qutbiddin's poetry. The author provides a scholarly justification that nature details serve as a mirror reflecting the inner emotions of the lyrical protagonist. Furthermore, the findings prove that in modern poetry, nature (imagery, landscape) is less a reflection of objective reality and more a poetic phenomenon reflecting the contradictory states of human consciousness.*

Keywords *Modernism, landscape lyrics, spiritual landscape, Abduvali Qutbiddin, existentialism, symbolism, subjectivism, fragmentariness*

Kirish

Modernizm (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri XX asr adabiyoti va san'atida (Quronov, 2013; 176) yuzaga kelgan, hayotni realistik aks ettirishdan voz kechgan, yangi estetik prinsiplarga asoslangan falsafiy-estetik hodisa bo'lib, u insonning ichki olamiga, ongsiz hissiyotlariga va subyektiv kechinmalariga alohida e'tibor qaratadi. Modernizmga xos yangicha badiiy tafakkur an'anaviy adabiy qonuniyatlarni inkor qilib, ijodiy erkinlikni, voqelikning o'rniga ijodkorning shaxsiy tasavvuriga keng o'rin berishga ahamiyat qaratadi. Bu esa o'z navbatida adabiyotning barcha turlarida, jumladan, she'riyatda ham jiddiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi.

Ispan faylasufi Ortega Gassetning modernizmni "san'atning insoniyashtirilishi" (dehumanization of art) (Ortega Gasset, 2019; 20) tarzida ta'riflaydi. Uning "Zamonaviy san'at ommaga qarshi va bu doim shunday bo'ladi, chunki u mohiyatan noommabop" ("Modern art, on the other hand, has the masses against it, and this will always be so since it is unpopular in essence; even more, it is antipopular", tarjima bizniki – Z.S.) degan fikrlari bu borada ahamiyatli. Bunda Gasset modernizmning asosiy xususiyati – uning elitar tabiatini ta'kidlaydi. Ya'ni zamonaviy san'at o'z mohiyatiga ko'ra ommaviy emas. U keng xalq ommasi tomonidan yaxshi qabul qilinmaydi va hatto unga qarshilar bo'lishi mumkin (P.Qodirovning modernizm haqidagi ayrim qarashlari – Qodirov, n.d.). Bu fikrlar modernizmga xos avangard va ixtisoslashgan san'at tushunchalari bilan uzviy bog'liq. Shuning uchun modernizm va uni qabul qiluvchi jamiyat o'rtasida ziddiyatli fikrlar mavjud. Modernistlar o'zlarining asosiy g'oya va qarashlari bilan jamiyatning an'anaviy qadriyatlarini, didi va dunyoqarashiga qarshi chiqqan.

M. Yo'ldosheva o'z tadqiqotlarida modern she'riyatga xos quyidagi jihatlarni ajratib ko'satadi (Yo'ldosheva, 2011):

1. odamning ichki olami birinchi o'inga qo'yiladi (16-bet);
2. Voqealar bayonidan ko'ra kechinmalar tasvirining izchilligiga e'tibor qartiladi (21-bet);
3. bosh harflar va tinish belgilarining deyarli qo'llanmasligidir (52-bet).

Ulug'bek Hamdam bo'lsa, o'zbek modern she'riyatining o'ziga xosligi borasida "shakl ketidan quvilib, mazmunning boy berilishi" masalasiga alohida diqqat qaratadi (Hamdam, 2020). Hamda modernizmga xos quyidagi umumiy jihatlarni tasniflab ko'rsatadi: 1) an'analarni inkor qilish; 2) xaosdan qochish; 3) go'zallikni reallikdan tashqarida izlash; 4) antroposentrik gumanizm; 5) Yevroposentrizm; 6) elitar san'at; 7) mazmun muhimligi va boshqalar.

Shu o'rinda modern she'riyatda, xususan, unda borliq manzarasini badiiy qayta yaratish, poetik peyzajni hosil qilishda yuqoridagi tamoyillardan qaysilari yaqqol namoyon bo'ladi, degan haqli savol tug'iladi. Unga javob berish modern she'riyat tadqiqida yangi fikrlar va qarashlarni ilgari surish mumkin. Jumladan, biz quyidagi jihatlarni alohida tasniflashni lozim topdik:

1. Ramziylik: bunda an'anaviy ramzlarni yangi mazmun bilan to'ldirish ham kuzatiladi.
2. Ichki landshaft (Ruhiy manzara): she'rlardagi peyzaj elementlari tashqi olamni emas, balki shoirning subyektiv kechinmalarini ifodalaydi, tuyg'ular moddiylashtiriladi.
3. Parchalanish (fragmentarlik) va ko'p qirralilik: peyzaj, manzara to'liq, keng va mufassil emas, balki uzuq-yuluq, alohida detallar orqali aks etadi. Fragmentar tasvirlar lirik qahramonning parchalangan ongini va xayol dunyosini ifodalaydi.

4. An'anaviy badiiy qadriyatlarning yangicha mazmun kasb etishi.
5. Individualizm va yolg'izlik: Modernist peyzajda individualizm va yolg'izlik holati markaziy o'rinni egallaydi. Lirik qahramon tabiatda ham, jamiyatda ham o'zini yolg'iz yoki anglanmagan deb his qiladi.
6. Ekzistensial tashvish va ma'no izlash: modern she'riyatga xos peyzajda hayotning ma'nosini izlash va egzistensial mavjudlik muammolari aks etadi.
7. Absurdlik va paradokslilik: odatdagi hayot tartibini mantiqsiz yoki teskari tasvirlash.

An'anaviy o'zbek she'riyatida peyzaj, asosan, borliq manzarasini tasviriy ifodalash, qahramonning ruhiy holatiga fon yaratish yoki topografik (joyga aloqador) xususiyatlarni aks ettirish uchun xizmat qilgan. Modernizm esa peyzajga bo'lgan bunday yondashuvni tubdan o'zgartirdi. Modern she'riyatda peyzaj endi obyektiv voqelikning aks etishi emas, balki lirik qahramonning ong oqimi, subyektiv tasavvuri va idrokining badiiy modeliga aylandi. Bu jarayonda, adabiyotshunoslikda ta'kidlanganidek, "voqelikni aks ettirish emas, ijodkorning o'z-o'zini ifodalashi ustuvor ahamiyat kasb etadi" (Quronov, 2013; 177). Modernist shoirlar tabiat manzaralariga o'zlarining ichki kechinmalarining ko'zgusi sifatida qarashdi. Natijada, ular peyzajni obyektiv go'zallikni ifodalashdan ko'ra, insonning ichki kechinmalari, falsafiy mulohazalari va ruhiy iztiroblari aks etgan subyektiv peyzaj, ramziy idrok makoni yoki "ruhiy landshaft"ga aylantirishdi. Bu yangi tafakkur natijasida tabiat manzaralari o'zining realistik ko'rinishini yo'qotib, ramziylik, metafora va subyektivizm vositasiga aylandi.

Asosiy qism

Abduvali Qutbiddin ijodi misolida o'zbek modern she'riyatida peyzaj tasviri ramziy ma'no kasb etganligini kuzatish mumkin. Shoirning "Xayol kechasi" to'plamidagi she'rlarida tashqi olamning xayol sarhadlarida qayta yaratilgan manzarasi yaqqol ko'rinadi. Uning quyidagi she'ri bu borada diqqatni tortadi, bu o'rinda

peyzaj obyektiv go'zallikni ifodalashdan ko'ra, insonning ichki kechinmalari va falsafiy mulohazalarini ochib berishga xizmat qiladi.

*Quyosh, yurtning qayda, so'ragan edim,
Tong-la nuringga dil o'ragan edim,
Men ham sen bor yerga boraman dedim,
Ammo osmoningga qo'ymading, quyosh,
Biror bor boshimga tekkizmading bosh*

(Qutbiddin, 1994).

Bu misralarda modern she'riyatda peyzajning uchta muhim xususiyati yaqqol namoyon bo'ladi: ramziylik, ichki olam manzarasi – "ruhiy landshaft" va fragmentarlik. Shoirning quyosh obraziga murojaat qilishi an'anaviy she'riyatdagi yondashuvdan mutlaqo farq qiladi. Mumtoz adabiyotda quyosh yorug'lik, hayot va ilohiy qudrat ramzi bo'lsa, bu she'rda u lirik qahramon uchun erishib bo'lmaydigan orzu, amalga oshmagan istakka aylanadi. She'rda quyoshning metaforik ma'nosi kengayib, hayotda o'rin topolmaslik, yolg'izlik va umidsizlik kabi chuqur ruhiy holatlarni ifodalaydi. She'rdagi tabiat detallari tashqi olamni emas, balki shoirning ichki kechinmalarini ifodalaydi. "Quyosh, yurtning qayda?" savoli orqali shoir go'yoki o'zlikni, nur – ruhning manbasini izlashni bildiradi. Abduvali Qutbiddin o'z she'rlarida tabiatni to'liq va keng planda tasvirlamaydi. Aksincha, u borliqning alohida, uzuq-yuluq detallariga ishora qiladi. She'rda Quyosh, osmon, tong manzarasi kabi yakka obrazlar lirik qahramonning parchalangan ongi va xayol dunyosini aks ettiradi. Ushbu fragmentar yondashuv nafaqat shoirning badiiy uslubi, balki bu holat umuman modern she'riyatdagi peyzaj tasvirlariga xosdir. Yangi badiiy tafakkurda voqelik tartibli va chiziqli emas, balki uzilgan, chalkash va to'g'ridan-to'g'ri mantiqqa bo'sunmaydigan tarzda aks etadi.

Ushbu she'r tahliliga egzistensializm falsafasi asosida yondashish mumkin. Ekzistensializm (lotincha – yashash, mavjudlik) borliqning fojialiligini, uning mantiqqa xilofligini, inson ixtiyorida emasligini targ'ib qiladi (Crowell, 2020). She'rda lirik "men" quyoshga murojaat qilar ekan, aslida o'z

hayotining ma'nosini, borliqda o'z o'rnini izlaydi. Biroq "osmongga qo'ymading, quyosh" va "biror bor boshimga tekkizmading bosh" misralari bilan bu izlanishning zoe ketgani, borliq (yoki ilohiy qudrat) unga befarq ekanligi ta'kidlanadi. Bu – ekzistensial tushkunlikning badiiy ifodasi. Shoirning ichki kechinmalari (ruhiy manzara) shunday bir bepayon makonki, unda qahramon nafaqat atrofidagilardan, balki o'zi intilayotgan yorug'likdan ham uzilib qolgan. Shoirning quyidagi satrlari ham yuqoridagi tahlilga hamohang (Qutbiddin, 1994):

*Barmog'ing niqtama, mening peshonam /
Xati tirnog'ing-la yozilmagandir.*

*Men bilan Xudoning o'rtasida g'am /
Ariqlari sen-la qazilmagandir.*

"G'am ariqlari" obrazi she'rning asosiy jihatidir. Bunda shoir o'zining "g'am" tuyg'usini "ariq" shaklida tasvirlab, ruhiy landshaft tushunchasini yanada mustahkamlaydi. "G'am arig'i" moddiylik nuqtayi nazaridan mavjud emas, balki lirik qahramonning ichki iztiroblarini ramziy ifodalaydi. She'rda modernizm va mumtoz adabiyot o'rtasidagi dialektik aloqani kuzatish mumkin. O'zbek mumtoz adabiyotida "moyayi dard" – hayotning asosi bo'lgan dard, azaliy g'am, haq ishq tushunchasi mavjud. Abduvali Qutbiddinning "g'am ariqlari" obrazida bu an'anaviy tushuncha modernizmga xos yangi mazmun kasb etadi. Mumtoz she'riyatda bu dard ko'proq ilohiy ishq bilan bog'liq bo'lsa, modern she'riyatda u ekzistensial g'am darajasiga ko'tariladi. Shoir tasvirlagan ariqlar insonning borliq oldidagi fojiviy yolg'izligini va taqdirga begonligini ifodalaydi. "G'am arig'i"ning ko'plik shaklida berilishi ham bejiz emas. Bu bilan shoir bu g'amning tuganmasligiga, uning inson umrining so'ngigacha davom etishiga ishora qiladi. Bu misralarda insonning borliq oldidagi fojiviy yolg'izligi, o'z taqdiriga begonligi va ilohiy qudrat bilan munosabati peyzaj detallari yordamida badiiy tasvirlangan.

Abduvali Qutbiddinning quyidagi she'rida sahro tasviri va ruhiy taxayyul

uyg'unligini ko'rish mumkin. Shoir sahro tasvirini berishda sarob, saksovul, qum, Qays, it, karvon, qashqir singari sahroga yondosh badiiy detall va obrazlarni keltiradi (Qutbiddin, 1994):

*Ne deyin, sahroda dardkashim sarob, / Sir
aytarim saksovul, ne deyin.*

*Kundan-kun ahvolim xarobdan-xarob, /
Ichdim g'am mayin.*

*Voyladim, bir ohu yaqin kelmadi, /
Qumga urdim yuzim, u mendan bezor,*

*Biror it meni Qays deb bilmadi, / Tan-u jon
ozor...*

*Ko'p kezdim, ko'rmadim birorta karvon,
Bilmadim qayonda mag'rib-u mashriq.*

*Mashaqqat sohibi, arkonim armon, /
Amirim qashqir...*

*Hukmi ravonimga bo'ysunmas taqdir, /
Endi yo'l birgina ruhlar ko'shkiga.*

*Tinch komga men qanday tushaman, axir,
/ Ishqiga to'ymadim. / Ishqiga.*

Abduvali Qutbiddinning ushbu she'ri modernizmning asosiy tamoyillarini chuqur aks ettiruvchi badiiy asardir. Shoir sahro tasviri (manzara, peyzaj) orqali inson ruhiyati va xayol kengliklarini aks ettiradi. Bunda peyzaj vositasida she'rning modernistik jihatlarini yaqqol namoyon bo'ladi. Birinchidan, she'rda **individualizm** va **yolg'izlik** holati tasvirlanadi. Lirik qahramon atrof-muhit va borliqdan (*ohu, it, karvon* obrazlari misolida) uzilib qolgan. "Kundan-kun ahvolim xarobdan-xarob" misrasi ruhiy parokandalikni kuchaytiradi.

Ikkinchidan, she'rdagi **an'anaviy badiiy qadriyatlarining yangicha mazmun kasb etishi** ham diqqatga sazovordir. Mumtoz she'riyatdagi ilohiy ishq Qays, it, sahro timsollari vositasida yangicha talqin qilinadi: "Biror it meni Qays deb bilmadi" misrasi an'anaviy obrazlarning yangi badiiy tafakkurdagi evrilishini ifodalaydi. Ushbu fikrni ikki xil talqin qilish mumkin:

1. Mumtoz adabiyotda Layli va Majnun afsonasi ilohiy ishqning mukammal ramzi hisoblanadi. Majnun (Qays) o'zining Layliga bo'lgan sof va cheksiz sevgisi tufayli odamzod dunyosidan uzoqlashib, tabiat va jonzotlar olami bilan ruhoniyl

bog'lanadi, borliq bilan uyg'unlashadi. Hatto vahshiy hayvonlar ham unga hamroh bo'lgan. Bu holat uning ishq yo'lida oliy darajaga yetganligining belgisi edi. Abduvali Qutbiddinning misrasida esa bu an'anaviy ramz butunlay inkor qilinadi. Lirik qahramon o'zini Majnunga qiyoslasa-da, "biror it" ham uni tanimaydi. Bu yerda it obrazi ruhan yaqinlik va ilohiy ishqning tan olinishi ramzi bo'lib, uning befarqligi esa zamonaviy insonning ilohiy ishqdan, sof tuyg'ulardan va an'anaviy ma'naviy qadriyatlardan uzilib qolganini ko'rsatadi.

2. Boshqa nuqtayi nazardan qaraganda, "*Biror it meni Qays deb bilmadi*" misrasi lirik qahramonning o'zini ilohiy ishq maqomiga noloyiq deb bilishini ko'rsatadi. U ishqqa intiladi, ammo ishq, sadoqati Majnunning darajasidan ancha past ekanligini his qiladi. Itning uni Qays deb tan olmasligi bu lirik "men"ning o'z-o'ziga nisbatan shafqatsiz bahosidir. Bu talqin modern she'riyatga xos bo'lgan subyektivizm va psixologizm tamoyillariga asoslanadi. Shoir tashqi dunyo (it, sahro) orqali lirik qahramonning o'z-o'zini anglash jarayonidagi murakkab ziddiyatlarini aks ettiradi. An'anaviy Majnun afsonasi bu o'rinda lirik qahramonning ichki o'lchovi, ruhiy holatini solishtirish uchun vosita sifatida xizmat qiladi. Bu modernizm she'riyatida an'anaviy ilohiy ishq tushunchasiga yangicha mazmun yuklaganligini ko'rsatadi. Shuningdek, fikrlar talqinida ko'p qirralilik polifoniklik kasb etishini isbotlaydi.

Uchinchidan, she'rda **ekzistensial tashvish** va ma'no izlash g'oyalari ustuvorlik qiladi. Bu lirik qahramonning hayot ma'nosizligiga qarshi ichki kurashi, o'z o'rnini topishga urinishi, shuningdek, tug'ilish, o'lim, erkinlik va tanlovning og'irligidan kelib chiquvchi doimiy iztirobidan iborat. Buni hayotda nimaning muhim ekanligini aniqlash, o'z e'tiqod va qadriyatlar olamini yaratishga

intilish sifatida ham ko'rish mumkin. Bu modernistik tamoyil she'ning eng muhim jihatidir va uni Jan Pol Sartrning ekzistensializm nazariyasi asosida tahlil qilish mumkin. "*Bilmadim qayonda mag'rib-u mashriq*" misrasi hayot mazmuni va maqsadining ramzidir. Yo'lning noaniqligi J.P.Sartrning "Dunyo o'z-o'zidan ma'noga ega emas" yoki "Biz doimo o'z yo'limizni tanlaymiz (*Sartre, n.d.*) degan g'oyasiga to'g'ri keladi. Hayotning ma'nosi, yashashning mazmuni inson tomonidan yaratiladi, lekin shoir – lirik "men" hali uni yaratmagan yoki unga erisholmagan. "*Hukmi ravonimga bo'ysunmas taqdir*" esa insonning o'z taqdiriga qarshilik ko'rsatishini ko'rsatadi. J.P.Sartr ta'kidlaganidek, inson har doim erkindir. Uning bu erkinligi hatto eng og'ir sharoitda ham, eng qattiq "taqdir"ga qarshi turishda namoyon bo'ladi. Shunday qilib, taqdirga bo'ysunmaslikni tanlash – tanlovning o'zidir. Bu qarshilik insonni yangi yo'l qidirishga undaydi, yangi tanlovlar uchun imkon yaratadi. Bu esa "ruhlar ko'shkiga" intilishning bevosita sababidir. Bu metafizik, transsendental (tajriba chegarasidan tashqaridagi) dunyoga: olam usti olam, ilohiy iroda makoni, g'ayb dunyosiga o'tishdir. Bu mag'lubiyat emas, balki lirik qahramonning eng oliy darajadagi faol va erkin tanlovidir. Boshqacha aytganda, J.P. Sartr falsafasiga ko'ra, inson hech qachon sharoitlarning quli emas. U har doim o'z holatiga nisbatan munosabatini tanlashda erkindir. Shoir ham tabiat detallari vositasida aynan shuni ifodalaydi: u sahro (mavjudlik makoni)dagi yolg'izlik va azob-uqubatlar sharoitida ham, o'z ichki erkinligidan foydalanib, taqdirga qarshi chiqadi va o'z mavjudligi uchun yangi, ruhiy makon tanlaydi. Bu uning eng muhim "o'zini tanlash"idir.

To'rtinchidan, **ichki dunyoning murakkabligi** tashqi muhit – sahro tasviri orqali ifodalanadi. Shoir lirik subyektning psixologik holatini tashqi tabiat manzaralari bilan uzviy bog'laydi. "*Sir aytarim saksovul*" "*Ichdim g'am mayin*" ifodalari esa ichki iztirobning ramziga aylangan bo'lib, umidsizlik va qayg'uning chuqurligi ta'kidlanadi. She'rdagi

sahro obrazi azob va cheksiz iztirob tushunchalari bilan ma'naviy uyg'unlik hosil qiladi. Zotan, sahro o'z-o'zidan yo'qotish, iztirob va og'riq makonidir. Shoir tashqi sahro manzarasini ichki olam bilan uyg'unlashtiradi. Bunda ruhning o'z manbaiga intilishi mujassam. Beshinchidan, she'rda, **absurd tushunchasi** va **paradokslilik** ham mavjud: "Amirim qashqir" misrasi an'anaviy ijtimoiy va tabiiy ierarxiyani butunlay ag'darib tashlaydigan paradoksni ifodalaydi. Bu yerda eng past mavjudotga (qashqir) bo'ysunish orqali lirik qahramonning mutlaqo tubanlashganligi, umidsizligi va o'z hukmini yo'qotganligi ko'rsatiladi. "Qumga urdim yuzim, u mendan bezor" misrasida esa absurd holat mavjud – bu yerda insonning tabiatga murojaati javobsiz qoldiriladi, ya'ni inson va borliq o'rtasidagi aloqaning uzilganligi ta'kidlanadi.

Xulosa qilib aytganda, Abduvali Qutbiddinning ushbu she'ri modernizm adabiyotining asosiy tamoyillarini – individualizm, an'anaviy badiiy qadriyatlarining inqirozi, ekzistensial tashvish, ichki dunyoning murakkabligi, absurdlik va paradokslilikni ifodalashda yetakchi o'rinni egallaydi. She'rda tasvirlangan mutlaq yolg'izlik, insonlardan qalban uzoqlashish (jamiyatdan izolyatsiya) va hayot mazmunini izlash zamonaviy insonning mavjudlik muammolarini chuqur aks ettirgan. Bunda shoir borliq manzarasi va sahroga xos bo'lgan badiiy detallardan (sarob, saksovul, qum, karvon) foydalangan holda, lirik qahramonning ruhiy holati bilan tashqi muhit uyg'unligini yaratishga muvaffaq bo'lgan. She'r inson ongining ziddiyatli tabiatini ochib berish bilan birga, uning o'z mavjudligi uchun kurashini ham ko'rsatadi. Abduvali Qutbiddinning quyidagi she'rida bog' va daryo singari tabiat manzarasiga aloqador obrazlar javobsiz sevgi va armonning peyzajdagi in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi (Qutbiddin, 1994):

*Xazoning to'pla, ko'm meni, bog', /
Teringni kafan et, ey ilon,
Yuzini o'girdi / Axir yor –*

*Chiqsang – chiq, / Ketsang – ket, endi, jon.
Daryo, sen muruvvat qil bir bor, /
Yo'lingga qo'shib ol laxta qon.*

Yuzini o'girdi / Axir yor –

Chiqsang – chiq, / Ketsang – ket, endi, jon.

Bog'ni, odatda, visol, farovonlik, go'zallik, behisht, daryo esa hayot, oldinga intilish, tozalik, tiklanish ramzi sifatida talqin qilish mumkin. She'rda esa ularga nisbatan ishlatilgan "Xazoning to'pla, ko'm meni", "Teringni kafan et, ey ilon", "laxta qon" kabi iboralar ularni o'lim, xiyonat, alam va umidsizlik ramzlariga aylantiradi. Bu ataylab qilingan stilistik usul bo'lib, obyektiv borliq va subyektiv olam o'rtasidagi qarama-qarshilikni kuchaytiradi. Shuningdek, she'rda murojaatning dramatik ta'sirini ko'rish mumkin. Lirik qahramon tabiat manzaralariga qarata nafrat, umidsizlik va hatto o'lim tilagidagi his-tuyg'ularini ifodalaydi. Bu lirik "men" iztirobining chuqurligini ko'rsatadi. U tabiatdan madad emas, balki qayg'u va iztirobini tasdiqlashni so'raydi. She'rdagi yor obrazining ikki tomonlamaliligi ham diqqatni tortadi: "yuzini o'girdi" tarzidagi ifoda yor (sevgili, dildor) nafaqat sevgi, balki aldash va xiyonat manbai ham ekanligini ko'rsatadi. "Ey ilon" xitobi bu mazmunni kuchaytiradi. She'rda sevgi va o'lim, ishq va nafrat o'rtasidagi chegaralar o'ziga xos tarzda kesishadi. Bundan tashqari, ushbu badiiy nutqda takrorning ahamiyatini ham unutmazlik lozim. "Chiqsang – chiq, / Ketsang – ket, endi, jon" tarzida ham misralarning, ham so'zlarning takrorlanishi lirik qahramon ruhiy holatidagi turg'unlik va umidsizlikdan so'nggi qat'iy hukmga kelganligini ta'kidlaydi. Lirik subyekt ichki dunyosidagi tushkunlik butun olamni o'z qayg'usi rangiga bo'yaydi. Shuningdek, jon ifodasini Alisher Navoiy ijodidagi jon va jonon tushunchalariga bog'lab ham talqin qilish mumkin. Jonon (yor) – ishq, ketsa, jondan foyda yoq! Xulosa sifatida aytish mumkinki, she'rda tabiat tasviri to'liq subyektivlashtirilgan va lirik qahramon ruhiy holatini ifodalashning kuchli vositasi sifatida ishlatilgan.

Modernizm she'riyatidagi an'anaviy shakl va mazmunlarni rad etish, yangi ifoda

vositalarini izlash, subyektivlik, ichki olam murakkabligini tasvirlash, ramziylik va ko'p ma'nolilikka intilish kabi jihatlar quyidagi she'rda ham aks etgan (Qutbiddin, 1994):

*Qaldirg'och loysuvoq qilgan ochunda /
Sevgim yo'llariga zor-zor qaradim,*

Yoshlarim yal-yali / Taraldi tunda...

*Yayradim. / Majnuntol darchasin ochdi,
kiritdi,*

*Yuz bitta qizidan birin tanladim. / Xivich
qasrlarda*

Barglandim biram... / Yayradim.

She'rda borliq olam bilan qalban birlashish g'oyasi mavjud. Ko'zyoshning tunda yal-yal yonishi osmondagi yulduzlarni esga soladi. Majnontol obrazida esa qayta tug'ilish bor, barglanmoq – shunga ishora. Xivich qasrlar – shoirning yangi, ohorli topilmasi. Daraxt novdalarini bunday atash she'riyatimizda kuzatilmagan. Buni modernist shoirlarning tashqi, obyektiv realitetni emas, balki o'zining subyektiv idrok va hissiyotlarini ifodalash uchun yangi ramzlar yaratishga intilishi bilan izohlash mumkin. She'rda mantiqiy ketma-ketlik emas, balki hissiyotlar va tasavvurlarning erkin oqimi hukmron. Unda vaqt va makon xronotopning moslashtirilmaganligini kuzatish mumkin. Lirik "men" bir nechta fazoda harakat qiladi: nomuayyan borliq (*Qaldirg'och loysuvoq qilgan ochun – hamma o'zi bilan, kun ko'rish bilan o'z bo'lgan dunyo ramzi*), majoziy makon (*sevgim yo'llari*), tun, xayoliy hudud (*xivich qasrlar*) Bu makonlar mantiqiy bog'lanishsiz, lirik qahramon ong oqimi bilan almashinadi, o'quvchiga yangi manzara va tasavvurlar beradi.

Modernistlar ko'pincha o'zgarish, yangilanish va yangi identitetni topish mavzularini yoritadilar. Tahlil qilinayotgan she'rda ham bu aks etadi. "*Barglandim*" tarzida o'zlik nisbatdagi fe'lning berilishi bu – tabiat va ong, tashqi va ichki olam o'rtasidagi chegaralarning yo'qolishi, ya'ni modernizm da tez-tez uchrovchi transgressiya (Lotincha – o'tish, subyekt tomonidan mumkin bo'lgan, ijtimoiy, axloqiy va boshqa ta'qiqlar, an'analar chegaralarini engib o'tish) hodisasidir.

"Yayradim" takrori esa bu yangi holatdan hosil bo'lgan ichki to'lqinlanishni ifodalaydi. Bu so'z orqali shoir o'zining badiiy evrilishini nishonlaydi. Shuningdek, bu so'zni qayta tug'ilish quvonchi yoki ijodiy ilhomning to'lqini sifatida ham talqin qilish mumkin. Tahlilardan ko'rinadiki, modernizm da tashqi dunyo lirik qahramonning ichki holati orqali ko'rsatiladi. Obyektiv realitet subyektiv idrokga bo'ysunadi, tabiat va his-tuyg'ular birligi o'ziga xos tarzda tasvirlanadi.

Modernizm da peyzaj butunlay lirik qahramonning ichki holatiga bo'ysundiradigan va uning kechinmalarini ifodalovchi subyektiv vositaga aylanadi. Abduvali Qutbiddinning ushbu she'rda bu jihatlar juda ochiq ko'rinadi (Qutbiddin, 1994):

*1. Qaydadir tun siyoh kokilin eshar, /
Tog'larda ezadi harir ko'ksini.*

*Qaydadir jayronlar o'ynab yurishar, /
Faqat men yashayman / O'ksinib. 2. Qaydadir
minora qanot qoqadi, / His etib tanida laylak
jismini.*

*Zarafshon qaygadir loyqa oqadi, / Faqat
men yashayman / O'ksinib.*

*3. Qaydadir tulporlar fazoga yetar /
Tomosha qilgani tovus raqsini.*

*Qaqnuslar olovlar qo'ynida yotar, / Faqat
men yashayman / O'ksinib. 4. Qaydadir
sayhonda o'tlar qovushar, / Qaydadir yo'qotar
oftob bo'zini. Qaydadir nam tortib unar
tovushlar, / Faqat men yashayman / O'ksinib*

*5. Qaydadir kapalak shafaqni ko'rar, /
Nurlanib sezadi baxtning isini.*

*Qaydadir bir sanam meni deb yashar, /
Faqat men yashayman / O'ksinib.*

Ushbu badiiy parcha modern she'riyatda peyzajning o'ziga xosligini ifodalovchi hamda manzarani subyektivlashtirish jihatidan ahamiyatlidir. Undagi "Qaydadir" takrori mavhum va begonalashgan lokus (topos)ga ishora qiladi. She'rning eng kuchli modernistik jihati ham butun tashqi dunyoning mavhum ("Qaydadir") deb belgilanishidir. Unda mavjudlikdan begonalashish hissi kuchli. Lirik qahramon o'zini bu jonli, harakatlanayotgan, mo'jizaviy

dunyodan butunlay ajralgan, chetlatilgan holda his qiladi. Peyzaj (manzara) unga emas, balki u peyzajga begona. She'ning butun tuzilishi keskin qarama-qarshilik asosiga qurilgan. Unda ikki ziddiyatli qutb – dixotomik kompozitsiya mavjud. Har bir bandeda dastlabki uch misra harakat, hayot, sezgi, go'zallik va mo'jizaviy hodisalar (*tulporlar fazoga yetar, qaqnuslar olovlar qo'ynida yotar, nam tortib unar tovushlar*) bilan to'la. Refrenda esa tushkunlik, iztirob (*Faqat men yashayman / O'ksinib*). Bu qarama-qarshilik obyektiv borliqni emas, balki lirik subyektning dunyodan ajralganlik darajasidagi chuqur psixologik holatini ta'kidlaydi. Modern peyzaj bu yerda ziddiyatning bir tomoni sifatida ishtirok etadi.

She'rda an'anaviy she'riy ramzlar mavjud, ular lirik qahramon yetolmaydigan o'sha baxtga to'la dunyoning qismidir. Masalan, jayron, tulpor – erkinlik ramzi, ular erkin, lekin lirik qahramon emas. Qaqnus – qayta tug'ilish ramzi, u o'lim va qayta tug'ilish bilan mashg'ul, lirik qahramon esa abadiy umidsizlikka mahkum. She'rda tasvirlangan peyzaj elementlariga xos hayotiylik lirik "men"ning o'zgarishsiz, umidsiz holatiga teskari ifodalangan. "*Tun siyoh kokilin eshar*", "*Minora qanot qoqadi*" kabi misralardagi o'xshatish va tashxis kabi vositalar she'ning badiiy yuksakligiga xizmat qilgan. Ko'rinadiki, she'rda tabiat tasviri, peyzaj detallari modernizmning asosiy mavzusi – zamonaviy insonning yolg'izlik va absurddagi iztirobini fodalovchi vositadir. U lirik qahramonning ichki holatini aks ettiruvchi

ko'zgu vazifasini o'taydi. Shuningdek, shoirning "She'riyat bo'limi. 1987-yil" (modernizmدا topografik she'ning o'ziga xosligi jihatidan ahamiyatli), "Tasavvur lahzalari", "G'ayriy daraxt" (falsafiy peyzaj) kabi she'rlari ham o'zbek modern she'riyatida peyzajning o'ziga xosligi jihatidan ahamiyatli.

Xulosa

Maqolada olib borilgan tahlillar o'zbek modern she'riyatida peyzaj shunchaki tabiat tasviri emas, balki inson ichki olamining murakkab in'ikosi ekanligini ko'rsatadi. Modernist shoirlar, xususan, Abduvali Qutbiddin ijodida peyzaj obyektiv borliqning realistik surati tasviri bo'lmay, lirik qahramonning ruhiy iztiroblari va subyektiv kechinmalari moddiylikdan "ruhiy landshaft" – botin manzarasi ifodasiga aylangan. Bu jarayonda quyosh, sahro, bog' va daryo kabi an'anaviy obrazlar o'zining mumtoz ma'nolarini o'zgartirib, yangi davr kishisining yolg'izligi, hayotda mavjudlik muammolari (ekzistensial tashvishlari) va hayot mazmunini izlash yo'lidagi ziddiyatlarini ifodalovchi yangi ramziy mazmun kasb etadi. Borliqning mantiqsizligi va absurdlik holati tabiat detallari orqali falsafiy teranlik bilan ochib berilishi o'zbek she'riyatida modernizm nafaqat shakliy yangilanish, balki dunyoni idrok etishdagi yangicha badiiy tafakkur ekanligidan dalolat beradi. Umuman olganda, modern she'riyatda peyzaj hodisasi inson ruhining parchalangan va murakkab manzaralarini badiiy ifodalovchi estetik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduvali Qutbiddin. (1994). *Xayol kechasi*. Toshkent: Yozuvchi.
2. Childs, P., & Fowler, R. (2006). *The Routledge Dictionary of Literary Terms*. Abingdon: Routledge.
3. Hamdam, U. (2020). *Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm*. Toshkent: Akademnashr.
4. Ortega y Gasset, J. (2019). *The dehumanization of art: and other essays on art, culture, and literature*. Princeton: Princeton University Press.
5. Quronov, D., Mamajonov, Z., & Sheraliyeva, M. (2013). *Adabiyotshunoslik lug'ati*. Toshkent: Akademnashr.



6. Yo'ldosheva, M. (2011). *Yangilanishlar manguhigi*. Toshkent: Adib.
7. Crowell, S. (2020). *Existentialism*. Stanford Encyclopedia of Philosophy. <https://plato.stanford.edu/entries/existentialism/>
8. Qodirov, P. (2013). *Ma'naviyat, modernizm va absurd*. Ziyouz portali. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/maqolalar/pirimqul-qodirov-ma-naviyat-modernizm-va-absurd>
9. Quronov, S. (2018). *Modern she'riyatda tasvir*. Xurshid Davron kutubxonasi. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sadulla-quronov-modern-sheriyatda-tasvir.html>
10. Sartre, J. P. (2012). *L'existentialisme est un humanisme*. Les Philosophes. <https://www.les-philosophes.fr/sartre/philosophie-existentialiste/sartre-livres.html>